

BOSQINCHILIKNING JINOYAT-HUQUQIY VA KRIMINOLOGIK JIHATLARI

Toshkent davlat yuridik universiteti 70420114 “Jinoyat qonunchiligini qo‘llash nazariyasi va amaliyoti soha” mutaxassisligi magistranti

Xusanov Bekzod Xayrulla o‘g‘li

Annotatsiya

Ushbu tezisdagi bosqinchilik jinoyati tushunchasi hamda tabiati haqida so‘z yuritiladi. Shu bilan birga, o‘zgar mulkini talon-toroj qilish jinoyatlarining turi sifatida bosqinchilik jinoyatining kriminologik jihatlari ham yoritiladi.

Kalit so‘zlar: O‘zgar mulkini talon-toroj qilish, bosqinchilik, kriminologik jihat, mulk, o‘zganing mulki, ko‘p miqdor, juda ko‘p miqdor.

Абстрактный

В данной диссертации говорится о понятии и сущности преступления вторжения. При этом освещаются и криминологические аспекты преступления вторжения как вида преступления грабежа чужого имущества.

Ключевые слова: хищение чужого имущества, вторжение, криминологический аспект, имущество, чужое имущество, крупный размер, особо крупный размер.

Abstract

This thesis talks about the concept and nature of the crime of invasion. At the same time, the criminological aspects of the crime of invasion as a type of crime of robbery of other people's property are also covered.

Key words: Theft of property of others, invasion, criminological aspect, Property, Property of another, large amount, very large amount.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 65-moddasida “Bozor munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan O‘zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil qiladi. O‘zbekiston Respublikasida barcha mulk shakllarining teng huquqliligi va huquqiy jihatdan himoya qilinishi ta’minlanadi” deb belgilangan. Mulq huquqining konstitutsiyaviy kafolati sifatida O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida “O‘zgar mulkini talon-toroj qilish” jinoyatlari uchun javobgarlik nazarda tutilgan. Talon-toroj jinoyatlariga bosqinchilik, tovlamachilik, talonchilik, o‘zlashtirish yoki rastrata yo‘li bilan talon-toroj qilish, firibgarlik va o‘g‘irlik jinoyatlari kiritiladi.

O‘zbekiston Respublikasining “Bosqinchilik, talonchilik va o‘g‘rilik yuzasidan sud amaliyoti to‘g‘risida”gi masala yuzasidan ma‘lumotiga ko‘ra talon-toroj qilish jinoyatlari respublikada har yili sodir etilayotgan barcha jinoyatlarning yuqori ulushini tashkil qilmoqda¹.

Jinoyat kodeksining 164-moddasida bosqinchilik jinoyatining tushunchasi berilgan. Unga ko‘ra, o‘zga shaxsning mulkini talon-toroj qilish maqsadida hujum qilib, uning hayoti yoki sog‘lig‘i uchun xavfli bo‘lgan zo‘rluk ishlatib yoki shunday zo‘rluk ishlatish bilan qo‘rqitib qilingan tajovuz bosqinchilik deyiladi. Bu o‘zga shaxs mulkini egallash maqsadida jabrlanuvchining hayoti yoki sog‘lig‘i uchun xavfli zo‘rluk ishlatish yoki shunday zo‘rluk ishlatish bilan qo‘rqitib tajovuz qilishning o‘zi bosqinchilik jinoyatini tashkil etadi va shunday zo‘rluk natijasida o‘zga shaxsning mulki g‘ayriqonuniy egallab olinadi.

Bosqinchilikning predmeti – o‘zga shaxsning mulki bo‘lib, ular O‘zbekiston Respublikasi puli, chet el valyutasi, qimmatli qog‘ozlar (aksiya, obligatsiya, veksel, cheklar, sertifikatlar), oylik yo‘l chiptalari, metro va telefon jetonlari, ko‘char mulklar va boshqa moddiy qiymatga ega bo‘lgan narsalar hisoblanadi.

Ko‘chmas mulklar, biron bir o‘zgarishlar kiritilmasdan foydalanish mumkin bo‘lmagan qog‘ozlar bosqinchilikning predmeti bo‘la olmaydi.

har bir qonunga xilof harakat nafaqat alohida ijtimoiy munosabatlarga, balki alohida munosabatlarga kiruvchi bir turdagi ijtimoiy munosabatlarning ma‘lum guruhlariga, shuningdek jinoyat qonunchiligi bilan qo‘riqlanadigan qator ijtimoiy munosabat-larga ham tajovuz qilishi va zarar yetkazishi mumkin.

Faqat bitta ijtimoiy munosabat, bitta jabrlanuvchining manfaatiga zarar yetkazadigan yoki uni xavf ostida qoldiradigan jinoyat bo‘lmaydi. Bu holda bir qancha ijtimoiy munosabatlar ichidan jinoyatning bevosita ob‘ekti sifatida bittasi aniqlab olinadi². M.H.Rustamboev va B.J.Axrorovlarning fikricha, bunday holda jinoyat-huquqiy muhofazani asosiy, qo‘shimcha va fakultativ ob‘ektlarini inobatga olish lozim. Ularning ta’kidlashicha, qonun chiqaruvchi qonunning tegishli moddasida jinoyat tarkibida fakultativ belgilardan aqalli bittasini ko‘rsatsa, u holda bu belgi jinoyatning zaruriy belgisi bo‘lib qoladi. Muayyan qilmishning sodir etilishida bu belgining yo‘qligi shaxsning qilmishida jinoyat tarkibining yo‘qligini anglatadi³. Biz tahlil qilayotgan bosqinchilik jinoyatining obekti haqida yuridik adabiyotlarda turli fikrlar bildirilgan. Ko‘pchilik mualliflarning fikrlariga ko‘ra, bosqinchilik ikki ob‘ektli: o‘zganing mulki, fuqarolarning hayoti yoki sog‘lig‘idir. Lekin ayrim mualliflar bu jinoyatning ikki ob‘ektli ekanligini rad etmagan holda

¹ Raximov G.A. Bosqinchilik, talonchilik va o‘g‘rilik yuzasidan sud amaliyoti “Qonun nomi bilan”. // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudining Axborotnomasi. – Toshkent, 1999. №2. B. 5.

² Rustamboev M.H. O‘zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. – Toshkent: “Ilm Ziyos”, 2011. – B. 23-24.

³ Rustamboev M.H., Axrorov B.J. Jinoyat huquqi. (Umumiy qism). – Toshkent: “Ilm Ziyos”, 2006. – B. 106.

bosqinchi-likning asosiy ob'ekti o'zganing mulki ekanligini tan olmaydilar. Shuningdek, P.B.Bakunovning ta'kidlashiga ko'ra, bosqinchilikning umumiy ob'ekti iqtisodiyot sohasidagi ijtimoiy munosabatlardir. Turdosh ob'ekti o'zganing mulki. Bevosita ob'ektlari esa: 1) o'zlashtirilgan mulk; 2) jabrlanuvchining sog'lig'i; 3) agar bosqinchilik uy-joyga g'ayriqonuniy yo'l bilan kirib sodir etilgan bo'lsa, fuqaroning turar joy daxlsizligi kabi konstitutsiyaviy huquqidir⁴.

Yu.M.Karakterov bosqinchilik jinoyatining asosiy ob'ekti shaxsning hayoti va sog'lig'idir, shaxsiy mulk esa qo'shimcha ob'ekt, jamoat xavfsizligi esa fakultativ ob'ektidir⁵ deb hisoblaydi.

N.A.Loposhenkoning fikricha, bu ob'ektlar orasida eng muhimi inson shaxsidir⁶.

Bosqinchilikda tahdid quyidagi alomatlarga ega bo'lishi kerak: birinchidan, unda o'z mazmuniga ko'ra odamning hayoti yoki sog'lig'i uchun xavfli jismoniy zo'rlik ishlatilgan bo'lishi; ikkinchidan, tahdid jabrlanuvchiga ko'rsatadigan ta'sir kuchi nuqtai nazaridan ahamiyatiga ko'ra jismoniy zo'rlikka teng, ya'ni real bo'lishi, o'zida darhol jismoniy zo'rlik ishlatishning haqiqiy xavfini ifoda etishi kerak; uchinchidan, tahdid aniq bo'lishi, ya'ni kelgusida emas, balki hujum qilish paytida xavf solishi; to'rtinchidan, jabrlanuvchida real xavf to'g'risida tasavvur hosil qiladigan darajada aniq qat'iy bayon etilgan bo'lishi kerak.

Tahdidning haqiqiyliги jabrlanuvchi tomonidan ongli qabul qilinishiga e'tibor berish kerak, ya'ni jabrlanuvchining tushinishiga ko'ra tahdid deb e'tirof etilishi kerak. Bunda aybdor jabrlanuvchi tahdidni real tahdid sifatida qabul qilayotganligini anglashi lozim⁷.

Bosqinchilik vaqtida tahdid muayyan va nomuayyan tusga ega bo'ladi. Qurol yoki qurol sifatida foydalaniladigan narsaning namoyish qilinishida ifodalangan tahdid doimo muayyan tusga ega bo'ladi, negaki, unda o'ldirish yoki turli darajada tan jarohati yetkazish niyatini ifodalaydi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 164-moddasida ko'rsatilgan jinoyatning sub'ekt yoshi 14 yoshdan belgilangan. Shunga ko'ra, bosqinchilik jinoyatining sub'ekti jinoyat sodir qilish vaqtida 14 yoshga to'lgan, aqli raso jismoniy shaxs bo'la oladi. Ana shu belgilar mavjudligining o'zi aybdorni bosqinchilik jinoyatini sodir qilishning sub'ekti deb topishga va jinoiy javobgarlikka tortishga sabab bo'ladi.

⁴ Bakunov P.B. Bosqinchilik uchun javobgarlik. – Toshkent: “TDYUI”, 2006. – B. 17.

⁵ Karakterov Yu.M. “Уголовно-правовые и криминологические проблемы борьбы с разбоем.: Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора юридической наук”. – Tashkent, 1980. – S. 11.

⁶ Loposhenko N.A. Комментарий к Уголовному кодексу Российской Федерации. – Москва: «Волтерс Клувер», 2005.

⁷ Bakunov P.B. Bosqinchilik uchun javobgarlik. – Toshkent: “TDYUI”, 2006. – B. 23.

JKning 164-moddasining ikkinchi, uchinchi va to'rtinchi qismida ko'rsatilgan bosqinchilikning ayrim murakkab turlari va aybni og'irlashtiradigan turlarini sodir etganlik uchun ushbu belgilar yetarli bo'lmay, yana boshqa qo'shimcha belgilari ham bo'lishi talab qilinadi. Jumladan, ushbu moddaning keyingi qismlarida talon-toroj qilingan mulkning miqdoriga qarab, aybdorning harakatini kvalifikatsiya qiladigan holatlar ko'rsatilgan, ya'ni 2-qismida ancha miqdor, 3-qismida ko'p miqdor, 4-qismida esa juda ko'p miqdorda talon-toroj qilish. Shu bilan birgalikda 164-moddaning 2-qismida qurol yoki qurol sifatida foydalanish mumkin bo'lgan boshqa narsalarni ishlatib yoki bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilganligi bosqinchilikning murakkab turi sifatida ko'rsatilgan.

164-moddaning 3-qismida takroran yoki xavfli residivist yoxud ilgari JKning 242-moddasida ko'rsatilgan jinoyatni sodir etgan shaxs tomonidan yoki uy-joyga, omborxonaga yoki boshqa binolarga g'ayriqonuniy ravishda kirgan holda yoxud badanga og'ir shikast yetkazgan holda sodir etilishi jazoni og'irlashtiradigan turi sifatida ko'rsatilgan.

164-moddaning 4-qismida esa o'ta xavfli residivist tomonidan yoxud uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko'zlab sodir etganligini aybni juda ham og'irlashtiradigan turi deb ko'rsatilgan, chunki bular bosqinchilikning maxsus sub'ektlardir.

Bosqinchilik jinoyati boshqa talon-toroj qilish jinoyatlaridan farq qilib, faqat bosqinchilik jinoyatida jabrlanuvchining mulkiga ham, uning o'ziga ham tajovuz qilinadi. Bosqinchilik jinoyati bilan kvalifikatsiya qilish uchun o'zga shaxsning mulkiga egalik qilish maqsadida uning hayoti yoki sog'lig'iga ham tajovuz qiladi. JKning 164-moddasi shaxsning o'ziga qilingan tajovuzning badanga shikast yetkazish oqibatlarini ham qamrab oladi va shaxsga qarshi jinoyatlar bilan qo'shimcha tarzda kvalifikatsiya qilish talab etilmaydi. Ushbu jinoyat shaxsga qarshi jinoyatlarning badanga og'ir shikast yetkazish jinoyatidan og'ir jinoyatlarni qamrab olmaydi. Bu jinoyatdan og'ir jinoyatlar bilan sodir etilganida yoki boshqa og'ir oqibatlarga sabab bo'lganida jinoyatlar jami tariqasida kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Bosqinchilik jinoyatida shaxsning sog'lig'iga, hayotiga extiyotsizlikdan zarar yetkazish oqibatlari boshqa kvalifikatsiya qilinishi lozim. Negaki, bosqinchilik jinoyati faqat qasddan sodir etiladigan jinoyat hisoblanib, extiyotsizlikdan sodir etiladigan jinoyatlarni qamrab olmaydi. Masalan, bosqinchilik jarayonida extiyotsizlikdan badanga o'rtacha og'ir yoki og'ir shikast yetkazish (111-m.), extiyotsizlikdan odam o'ldirish (102-m.) jinoyatlaridir.

Bosqinchilik jinoyatida zo'rlik ishlatishdan oldin jabrlanuvchi-ning mulkini olish maqsad qilingan bo'lishi lozim, jabrlanuvchi bilan urishib qolib, uning tan jaroxati yoki o'limi kelib chiqqanidan keyin uning mulkini ham olish niyatining

paydo bo'lganligi bosqinchilik belgisini bera olmaydi. Bunday holda shaxsning o'ziga nisbatan sodir etilgan harakat va keyin uning mulkini olganligi alohida jinoyatlarni tashkil etadi.

Bosqinchilik jinoyati ruhiy zo'rlik bilan ham sodir etilishi mumkin. Bosqinchilikda ruhiy zo'rlik o'ldirish yoki og'ir shikast yetkazishga real xavfli bo'lganida ushbu jinoyatning belgisini bera oladi. Jabrlanuvchining ruhiy zo'rlikni noto'g'ri anglashi bosqinchilik jinoyatining belgisini bayon eta olmaydi. Kelajakda ishlatish bilan qo'rqitadigan ruhiy zo'rlik ham bosqinchilik jinoyatining belgisini bayon qila olmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Raximov G.A. Bosqinchilik, talonchilik va o'g'rilik yuzasidan sud amaliyoti "Qonun nomi bilan". // O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudining Axborotnomasi. – Toshkent, 1999. №2. B. 5.
2. Rustamboyev M.H. O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. – Toshkent: "Ilm Ziyo", 2011. – B. 23-24.
3. Rustamboyev M.H., Axrorov B.J. Jinoyat huquqi. (Umumiy qism). – Toshkent: "Ilm Ziyo", 2006. – B. 106.
4. Bakunov P.B. Bosqinchilik uchun javobgarlik. – Toshkent: "TDYUI", 2006.
5. Karaketov Yu.M. "Уголовно-правовые и криминологические проблемы борьбы с разбоем.: Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора юридической наук". – Tashkent, 1980.
6. Loposhenko N.A. Комментарий к Уголовному кодексу Российской Федерации. – Москва: «Волтерс Клувер», 2005.